5-BO‘LIM.
IJTIMOIY PEDAGOGIKA VA OILAVIY TARBIYA

MILLIY TARBIYA HAQIDA: OTA-ONALAR BILAN PEDAGOGIK SUHBAT

Quronov Muhammadjon Quronovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bosh ilmiy xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada yosh avlod tarbiyasida oila va ota-ona- ning mas’uliyati, milliy tarbiyaning ahamiyati hamda zamonaviy axborot makonining bola shaxsiga ta’siri masalalari yoritilgan. Unda “hayot tarbiyasi” va maqsadli tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinib, farzand tarbiyasini tasodifiy muhit va begona ta’sirlarga topshirib qo‘yishning salbiy oqibatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar va video o‘yinlarning yoshlar dunyoqarashi hamda xulq-atvoriga ta’siri tahlil qilinib, ota-onalarning mediapedagogik savodxonligini oshirish va bolalarda axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, oilaviy tarbiya, milliy tarbiya, ota-ona mas’uliyati, ma’naviy evolyutsiya, hayot tarbiyasi, maqsadli tarbiya, media, internet, ijtimoiy tarmoqlar, video o‘yinlar, mediapedagogik savodxonlik, mediatarbiya, axborot ta’siri, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы ответственности семьи и родителей в воспитании подрастающего поколения, значения национального воспитания и влияния современной информационной среды на развитие личности ребёнка. Анализируются особенности «воспитания жизнью» и целенаправленного воспитания, а также негативные последствия передачи воспитания детей случайному окружению и посторонним влияниям. Особое внимание уделяется влиянию средств массовой информации, интернета, социальных сетей и видеоигр на мировоззрение и поведение молодёжи, а также необходимости повышения медиапедагогической грамотности родителей и формирования у детей навыков критического анализа информационных материалов.

Ключевые слова: воспитание, семейное воспитание, национальное воспитание, ответственность родителей, духовная эволюция, воспитание жизнью, целенаправленное воспитание, медиа, интернет, социальные сети, видеоигры,

медиапедагогическая грамотность, медиавоспитание, информационное воздействие, воспитание молодёжи.

Abstract. The article examines the responsibility of families and parents in raising the younger generation, the importance of national upbringing, and the impact of the modern information environment on children's personal development. It analyzes the specific features of "life education" and purposeful upbringing, highlighting the negative consequences of leaving children's development to random environments and external influences. Particular attention is paid to the impact of mass media, the Internet, social networks, and video games on young people's worldview and behavior, as well as the need to improve parents' media pedagogical literacy and develop children's skills in critically analyzing information.

Keywords: upbringing, family upbringing, national upbringing, parental responsibility, spiritual evolution, life education, purposeful upbringing, media, Internet, social networks, video games, media pedagogical literacy, media education, information influence, youth upbringing.

Antropologlarning guvohlik berishlaricha, odamning tashqi ko‘rinishi, tusi, siyog‘i keyingi 40000 yildan buyon (so‘nggi paleolit - kromanonlar davridan beri) o‘zgarmay kelmoqda. Odamning biologik evolyusiyasi tugadi. Lekin uning ma'naviy evolyutsiyasi cheksiz. Endi tarbiya insonni kamolotning yangi marralariga ko‘tarib, o‘zgartira boradi. Zero pedagogik nuqtai nazardan har bir inson - o‘z hayoti davomida olgan tarbiyaning mahsulidir. Demak, tarbiya farzandimizning, oilamizning, O‘zbekistonimizning, insoniyatning kelajagini hal qiluvchi omildir.

Dunyoda ro‘y bergan, berayotgan har bir notinchlik, nizo, baxtsiz voqea, buzilgan oila, singan taqdir tarixi "lenta"sini orqaga qaytarsak, tarbiyaga borib to‘xtaydi. "Oldin pul, keyin ma'naviyat" yo‘lini tutish bo‘lib chiqadi. Ularning bu xatosi dunyoda "boy berilgan avlod" - "Lost generation" iborasini paydo qildi.

Yevropada butun boshli oilalar moddiy boylikni quvib ketishdi. Uyidagi farzandlari tarbiyasini esa begonalarga berib qo‘yishdi. Tarbiyadan(!) vaqtlarini tejadilar. 10 pullik foyda topdilar ham. Bugun esa... jonsarak bo‘lib, bolalarini qayta tarbiyalashga 1000 pul sarflashmoqda. Lekin samara 10 pullik bo‘layotir. Chunki vaqt boy berilgan. Mana sizga "oldin moddiy hayot, keyin ma'naviyat"ning ayanchli moddiy, ma'naviy oqibati. Bu - "Boy berilgan avlod" muammosining pedagogik diagnozi.

Milliy tariximizga qarasak, hukmdorlarimiz o‘z farzandlari tarbiyasini otaliqlarga, ustoz-murabbiylarga, zamonasining peshqadam,

sodiq insonlariga ishonib, yuklashganini ko‘ramiz. Temuriylar avlodlar tarbiyasida ham ana shu fazilatlarga ustuvorlik berilib, bola xarakterida qat’iyatsizlik, tadbirsizlik, loqaydlik, nomardlik va jur’atsizlik kabi illatlarning paydo bo‘lishining oldi olib borilgan.

XIX asr o‘rtalarida xalqimiz hayoti, fe’l-atvorini o‘rgangan mojor olimi G.Vamberi o‘zbeklarning milliy tarbiyasi natijasi o‘laroq, fe’l-atvori bilan bir xilligini qayd etadi. XIX asr o‘zbeklarini ko‘rgan olim bobo-momolarimiz haqida shunday deydi: “Oltin o‘rdada o‘zbek” degan nom ancha oldindan ma’lum bo‘lib, ular “shafqatsiz odatlardan bosh tortishib, Osiyo madaniyatiga yo‘l ochishgan: o‘troq va yarim o‘troq, asl dehqon; harbiy millat; savdoda og‘ir vazmin; sanoatda mo‘tadil; ochiq ko‘ngil, mard; jiddiy, haqiqiy turkiy himmatga ega; ma’yuslikgacha kam gap, og‘ir vazmin; sovuqqonlik odob-axloq namunasi hisoblanadi; bir gapni o‘ylab og‘zidan chiqarguncha bir qancha daqiqalar o‘tadi; o‘zbek o‘ylabroq gapirishga moyil, u buni tabiiy deb biladi; sadoqatli va dovyurak bo‘lib, to‘g‘ri gapiradigan, to‘g‘ri harakat qiladigan, ko‘zga tik qaraydigan erkakni mukammallik namunasi deb biladi. Davlat himoyasini o‘z zimmasiga olgan, o‘zbeklarning oilaviy munosabatlarini asl namuna hisoblasa bo‘ladi - ko‘p xotinlik faqat hukmdorlarga xos; o‘rta yoshga borib qolgan farzandlar o‘z ota-onalariga juda ehtiromli. O‘zi 30-40 yoshlarga borib qolgan o‘g‘il otasining bir qarashidayoq cho‘chib ketadi va hech qachon otasi bor paytda chilim chekmaydi, birinchi o‘tirmaydi, birinchi gapirmaydi; turkiy shevada gapiradilar; o‘zbeklar bolalaridan qunt talab qilishadi; mug‘ombirlik kamdan-kam uchraydi; o‘zbeklar yaxshi musulmondirlar - shu jihatdan anatoliyalik turklarga o‘xshaydilar; ashula va musiqani jon dilidan sevishadi va h.k. Milliy tarbiya tizimining o‘tkir vositalaridan biri - har bir kishining o‘z ajdodlari tarixini bilishi lozimligi va shunga ilk yoshlardanoq bolalarga o‘rgatila borishi edi. “Turk va tojikda barcha odam farzandi ichinda rasm tarbiya rejasini tuzib, uyquni buzib kuzatganga, tuzatganga, qaraganga, taraganga, ko‘rsatganga, o‘rgatganga, mashq qildirganga, chiniqtirganga, oqibatni o‘rgatganga oqibat ko‘rsatadi.

Ko‘nglingizdan: “Falonchi aka bolasini tarbiyalashga alohida shug‘ullanmagan. Lekin bolalari juda yaxshi chiqishdi-ku. Bolani hayotning o‘zi tarbiyalaydi”, degan o‘y o‘tgandir. To‘g‘ri. Hayot tarbiyalaydi. Lekin, bu kafolatga emas, tavakkalga tayanish.

“Hayot tarbiyasi” nima? Bu hozirgi murakkab va tahlikali davrda ko‘chaning, siz taniydigan, tanimaydigan odamlarning bolangizga beradigan xulq namunalari. Ularning ham o‘z bolalari bor. Ular sizning bolangizga o‘z farzandidek qarashiga, jon kuydirishiga ishonasizmi? “Ha”, deguvchilarga savol: “Siz o‘zingiz qachon, qayerda birovning bo-

lasini noto‘g‘ri ish qilayotganida to‘xtatib, tanishib, to‘g‘ri yo‘lga solib, ota-onasiga bu haqda xabar berib qo‘ygansiz?”

Ikkinchidan, siz mashinangizni kafolat, kredit kartangizni, xatini begona kishiga ishonib berib qo‘yasizmi? “Yo‘q”. Bu matohlar farzand degan davlat oldida hech nima emas. Unda nega Ollohning sizga ato etgan ne‘matining taqdirini, o‘zingizning keksayganda suyanadigan suyanchingiz masalasini birovlarga ishonmoqchisiz? Tavakkal qilmoqchisiz? Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali davrda?

To‘g‘ri, bola kundalik hayotda ijtimoiylashadi. Ijtimoiylashuv bu - bolangiz maktabga borayotib, duch keladigan minglab o‘tkinchi, tanish-notanish odamlar, vaziyatlar, voqealar degani. Bolangiz ertaga maktabga ketayotganda yoki qaytayotganida kimlarga, qanday yaxshi-yomon vaziyatlarga duch kelishini bilasizmi? Yo‘q, albatta. Hayot tarbiyalaydi, deb bolangizni tavakkal ixtiyoriga berib qo‘yasizmi? Yo‘q. Tarbiya bu - aniq fazilatlarni bola xulqida ko‘rish maqsadini ko‘zlab, muayyan vaqt davomida, ishonchli, bilimli odamlar tomonidan amalga oshadigan aniq natijali ish.

Maxsus, ataylab, aniq o‘lchanadigan natijaga erishish uchun qilinadigan tarbiya bu - sug‘oriladigan yerda, “hayot tarbiyasi” bu - lalmi yerda dehqonchilik qilishga o‘xshaydi. Sug‘oriladigan yerda dehqonchilikning hosili 90 foizi sizga bog‘liq. Chunki ishni siz boshqarasiz. Lalmi yerdagi dehqonchilik hosilining qanday bo‘lishi esa 90 foiz ob-havoga, 10 foizi ota-onaga bog‘liq. Siz bolasi taqdirini ob-havoga ishonib qo‘yadigan ota-onamisiz? “Vaqtim yo‘q”, deb bu ishni ota-ona qilmasa, ularning o‘rniga ko‘cha, o‘tkinchi odamlar, tasodif-voqealar tarbiyalaydi. Buning natijasi qanday bo‘lib chiqishini hech kim bilmaydi.

XXI asr raqamli ommaviy axborot vositalari jamiyatimizga beqiyos ta’sir ko‘rsatmoqda. Global axborot asri deb yuritila boshlandi. Media - lotincha media, medium - vosita, o‘rtada turuvchi, axborot tashuvchi, muhit ma’nosini anglatadi. U an’anaviy (bosma, radio, ovozli, kinematograf, televidenie) hamda zamonaviy (video, mobil telefonlar, CD, DVD, kompyuter, Internet) ommaviy axborot vositalarini o‘z ichiga oladi. Jamiyatimizning bugungi rivojlanish davrida ushbu ommaviy axborot vositalari insonlar hayotida muhim o‘rin egallaydi. Oilalarda onalarning eng sevimli janrlaridan biri - seriallar bo‘ldi. Albatta, ular ichida tarbiyaviy jihatdan qimmatga egalari ham bor, lekin bizning milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga mos kelmaydigan, bizning o‘zligimizga tamomila teskarilari ko‘p. Ular go‘yoki realistik, hayotiy vaziyatlar asosiga qurilgan syujet orqali teletomoshabinlarga zo‘ravonlik, behayolik g‘oyalarini xuddi bir oddiy holat, madaniyat normasi sifatida singdirmoqda. Chunki yosh bola atrofidagi olamni obrazlar orqali

anglaydi, ular asosida o‘zining shaxsiy dunyoqarash modelini quradi. Shunday ekan, jurnalist olima V.Qarshiboyeva iborasi bilan aytganda “yoqimli... va xavfli” mahsulotlar yot g‘oyalari bilan farzandingiz ongini o‘zgartirishiga siz tinch qarab turasizmi?

Internet bugungi kunda ulkan axborot manbai, bilim olishning eng samarali vositalaridan biriga aylandi. Internet tarmog‘i orqali o‘quvchilar o‘zlarining bilimlarini oshirishi, tengdoshlari bilan muloqotga kirishi mumkin. Albatta, shak-shubhasiz Internet kunlik hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. Lekin har qancha yutuqlarini ta’riflamaylik, Internetning ham yoshlar tarbiyasiga negativ ta’siri jihatidan kamchilik tomonlari mavjudki, bunga ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Yoshlar o‘rtasida Internetning eng ko‘p tarqalgan xizmatlaridan biri - bu chat, forum va turli ijtimoiy tarmoqlarda boshqa insonlar bilan muloqot qilish. Bunday muloqotlarning eng xavotirli jihati shundan iboratki, bunda yoshlar bilmasdan xavfli insonlar bilan muloqot o‘rnatishlari mumkin. Chunki virtual muloqotda har kim anonim holatda muloqot yuritishi mumkin va kim aslida kimligini aniqlab bo‘lmaydi. Bunday holatlarda o‘smirlar turli radikal oqimlar va diniy sektalar ta’siriga tushib qolishi mumkin.

Video o‘yinlarning zararli oqibatlari haqida OAV orqali ko‘plab ma’lumotlar berib borilmoqda. Internetomaniya kasalligiga duch kelgan o‘smir yoshlar o‘zining ko‘p vaqtini behudaga sarflash bilan o‘tkazmoqdalar, uning oqibatida ham psixologik, ham jismoniy zarar yetmoqda. Ko‘pincha holatlarda virtual dunyo Z va Alfa avlodlariga mansub yoshlarning ijtimoiy faolligini o‘rnini qoplab real dunyodan ajratib qo‘ymoqda va undan mustaqil ravishda yoshlarimiz chiqib ketolmay qolyaptilar. Demak, har bir ota-onaga mediapedagogik savodxonlik suv bilan havo qadar zarur. Chunki bugungi yoshlarning media axborotlarni to‘liq va to‘g‘ri tushunishlari uchun axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Oilada farzandlarimizni turli vayronkor va yovuz g‘oyalar bilan singdirilgan axborotlar ta’siridan himoya qilganimiz bilan, ular oila tashqarisida xohlaymizmi yo‘qmi, turli axborot ta’siriga uchraydilar. Bunda mediatarbiya yoshlarimizda bugungi hayotimizda o‘ta muhim bo‘lgan "g‘oyaviy immunitetni” shakllanishiga va o‘z shaxsiy hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar milliy tarbiyaning, ayniqsa, uning metodik jihatlarini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, maktab, oila va mahallaning milliy tarbiyaviy hamkorligini takomillashtirish; zamonaviy o‘zbek qizlarida ijtimoiy faollik, tadbirkorlik sifatlarini shakl-

lantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish; oliy o‘quv yurtlari talabalarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmun, uslub va vositalarini takomillashtirish; mahalla va oilaning milliy tarbiyaviy imkoniyatlarini takomillashtirish; milliy tarbiya jarayonini tadqiqot qilishda kibernetik uslublarni joriy qilish; maktabdan tashqari muassasalarda milliy tarbiya tizimini ishlab chiqish; milliy tarbiya uslublarini takomillashtirish; ota-onalarning milliy tarbiyaviy bilimlari, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish; milliy tarbiyaning harbiy pedagogik mohiyati; o‘quvchilarning bo‘sh vaqti va milliy qadriyatlar tizimini sotsiologik o‘rganish; milliy tarbiya bo‘yicha tarixiy tadqiqotlarni rivojlantirish; milliy tarbiyani amalga oshirishning mintaqaviy xususiyatlari va ularni takomillashtirish masalalari; milliy tarbiyaga qiyosiy-pedagogik yondashuv va uning samaradorligini oshirish; maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni milliy tarbiyalashning nazariy va uslubiy pedagogik asoslari; milliy tarbiyaga gerontopedagogik yondashuv; xorijda istiqomat qilayotgan o‘zbek oilalarida milliy tarbiyaning xususiyatlari; Prezident maktablari, ijod maktablari, “Temurbeklar maktablari”da milliy tarbiya jarayonini tashkil qilishning pedagogik xususiyatlari kabi istiqbolli yo‘nalishlar o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Fitrat, A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan.
5. Qarshiboyeva, V. Media va yoshlar tarbiyasi mavzusidagi ilmiy-pedagogik qarashlar.
6. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2013.